

**MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALAR NUTQ FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

*207-sonli DMTT direktori
Rixsiboyeva Nodira Muksumovna*

ANNOTATSIYA

Bolaning maktabga tayyorgarlik indikatorlaridan eng muhimni bu – og‘zaki nutqining rivojlanganligidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar nutqini o’stirish alohida yondashuv va metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Bu jarayonda pedagogik qo’llab-quvvatlash muhim shart hisoblanadi. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovation metodlarni qo’llash metodikasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *metodika, nutq o’stirish, pedagogik qo’llab-quvvatlash, rivojlantirish, muloqot.*

KIRISH

So’nggi o’n yilliklarda maktabgacha yoshda va inson hayoti davomida nutqni o’zlashtirish masalalarini o’rganish ishlari jadallahsgan. Chunki til odamlar o’rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, ularning fikrlari, hissiyotlari va intilishlarini ifoda etish, fikrlarni shakllantirish vositasidir. Ushbu vosita qanchalik mukammal bo’lsa, insonning o’qitilishi va aqliy rivojlanishi yanada muvaffaqiyatli bo’ladi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda kognitiv muloqot va nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirish – bu rivojlanishning qulay davrida bolalarning aqliy, badiiy va nutqiy tarbiyasi muammolarini hal qilishning zaruriy sharti. Bog’lanishli nutq qanchalik faol rivojlangan bo’lsa, bola undan erkin foydalanadi. Ravon nutqiy ko’nikmaga ega tarbiyalanuvchilar erkin fikr yuritishga, savollar berishga, xulosalar chiqarishga, narsalar va hodisalar o’rtasidagi turli xil aloqalarni aks ettirishga imkoniyati keng bo’ladi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning mакtabda o’qish uchun nutqqa tayyorligini shakllantirishda aynan nutq o’stirish ta’limiy faoliyatlar davomida o’rganiladigan bolalar adabiyoti namunalari, xalq ertak va rivoyatlari va she’rlarning tizimli o’rganilishi katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA TADQIQOT METODIKASI

Nutqni rivojlantirish muammosi quyidagi faoliyat turlarida hal qilinadi: o’yin, o’quv va bilim. O’yin faoliyati maktabgacha yoshda etakchi faoliyatdir. O’yin paytida bola bilimlarni to’playdi, ona tilini o’rganadi, muloqot qiladi, fikrlaydi va tasavvurini rivojlantiradi, ammo ta’limiy topshiriqlar o’yin muhitida olib borilsa, bolaning bilish kompetensiyalarini yanada rivojlanadi. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning faol nutqiy ko’nikmalari muvaffaqiyatli shakllantirilsa, bolalarning nutqiy kompetensiyalarini optimal vositalar orqali rivojlantirish bo’yicha samarali usullarni

yaratish ehtiyoji vujudga keladi. Nutqning bolani mакtabga tayyorgarligini shakllantirish mezonlari va ko’rsatkichlari quyidagilardir:

- tinglash qobiliyati (qo’shimcha ko’rsatmalarsiz tinglaydi, taklif qilingan ma’lumotlarni qabul qiladi), o’z harakatlarini og’zaki bayon qilish qobiliyati (lingvistikaga oid o’z harakatlarini nomlaydi);

- o’z nutqida bog’lanishli hikoya tuza oladi;

- so’z o’ylaganlarini, bilganlarini anglatuvchi vosita ekanligini tushunadi, voqealarni hikoya qilib bera oladi;

- so’zda olingen bilimlarni mustahkamlash zarurligini his qiladi, nutqni ta’sir qilish vositasi sifatida ishlatish qobiliyati rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning maktabda o’qishga nutqiy tayyorgarligini shakllantirish samaradorligini ta’minlaydigan asosiy pedagogik shartlarga quyidagilar kiradi:

- maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish (xotira, aqliy operatsiyalar xususiyatlari: taqqoslash, umumlashtirish, xulosa qilish; tasavvur; e’tibor);

- o’rganilayotgan badiiy asarlarni anglashi, tasvirlashi, hikoya qilishi, yod aytishi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya’ni o’zimizning boy o’tmish tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, badiiy asarlarimiz vositasida amalga oshiriladigan ta’limiy muhit yuzaga kelganligining mohiyati beqiyosdir. Ushbu rivojlanish tendensiyasi ta’limtarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo qiladi.

Xuddi shuningdek maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda zamonaviy usul va uslublarni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifadir. Eski uslub bilan vazifalarni amalga oshirib bo’lmaydi. Ko’pgina olimlarning tajribalari shuni ko’rsatadiki, biz bu masalalarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirishimiz, shundagina samarali ta’lim sifatiga erishishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har qanday davlat taraqqiyoti ta’lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar, uning jahon andozalariga mosligi va amaliy hayotda qanday o’rin tutishlariga bog’liq. Sifat o’zgarishlari esa mazkur sohada ijobiy yangiliklar krita olishi bilan belgilanadi. O’z navbatida bunday yangilikni kiritish – immitatsion jarayon bo’lib, bu – ta’limda samaradorlikka erishishdan iborat bo’ladi1 . Bu borada maktabgacha ta’lim sohasida bolalarning nutqini o’stirishda bolalar adabiyoti bilan tanishtirish va yangi pedagogik texnologiyalar asosida hikoya qilish, so’zlash va she’riy asarlarni yodlashga o’rgatish bo’yicha yangi ilmiy asoslangan amaliy metodikalarni jarayonga tatbiq etish muhim vazifamizdir. Bunda boshqa sohalarda bo’lgani kabi maktabgacha ta’lim tizimida ham innovatsion laboratoriylar faoliyatni jonlantirish, alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, kelajak avlod tarbiyasida ravon nutqqa ega bo’lish, mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish hayotda uchraydigan voqeа-hodisalarning mohiyatini tez anglaydigan zukko va bilimdon qilib tarbiyalash aynan maktabgacha ta’limdan boshlanishi kerak. Bunday maqsadlarni amalga oshirish Maktabgacha ta’limning davlat standartida ko’zda tutilgan bo’lib, nutq o’stirish mashg’ulotlari hamda “Til va nutq” rivojlantiruvchi markazida bolalar nutqini o’stirishning zamonaviy usullarini amaliyatga qo’llashni talab etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyanuvchilarning nutqiy faolligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Sababi bir qator kompetensiyalar qatorida nutq va muloqot ko’nikmalari rivojlangan bolagina maktab ta’limiga tayyor hisoblanadi. Aynan mazkur kompetensiya O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”, “Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari” va “Ilk qadam” davlat o’quv dasturida tarbiyanuvchilarda faol rivojlantirilishi zarurligi belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amaliyatda to’laqonli bajarish va innovatsion texnologiyalardan foydalanib maktabgacha yoshdagи bolalarning nutqiy faolligini oshirishning dolzarbligi shundan iboratki, o’quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tobora ko’proq e’tibor berilmoqda, ammo hamma amaliyotchilar ham ta’limiy jarayonda undan to’g’ri foydalana olmaydilar. Bolalarning rivojlanishini o’rganish shuni ko’rsatadiki, nutqiy faollik noan’anaviy ta’lim sharoitida boshqa faoliyat turlariga qaraganda samaraliroq rivojlanadi, shuning uchun tarbiyanuvchilarni keng nutqiy faoliyatga kirishishga undaydigan badiiy adabiyotlarni zamonaviy pedtexnologiyalar asosida o’rgatish metodikasiga tayanish tarbiyanuvchilar nutqini rivojlantirishdagi eng muhim usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babayeva Dono Razzoqovna, “Nutq o’stirish metodikasi”, Toshkent – “Fan va texnologiya” – 2009
2. F.R. Qodirova, “Nutq o’stirish metodikasi”, O’UM T.; 2012-yil. (elektron)
3. Olimov Q.T., “Pedagogik texnologiyalar”, – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011
4. Ishmuxamedov R., “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari” (2-kitob). – T.: TDPU, 2010
5. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).